

SOTSIAL INTELLEKT BO'LAJAK OFITSERLAR XIZMAT FAOLIYATINING SAMARADORLIK PREDIKATI SIFATIDA

Turayev Javohir

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: «Inson-inson» turidagi kasblarda, jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida eng muhim sifatlardan biri ijtimoiy intellekt hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt insonning boshqa odamlarni, ularning xatti-harakatlari, nutqi, mimikasi, hissiyotlari va ijtimoiy rollarini to'g'ri anglay olish qobiliyati bo'lib, u shaxsning kommunikativ salohiyatining kognitiv asosini tashkil etadi. Bu intellekt insonlar bilan o'zaro munosabatdagi bilish jarayonlarini boshqaradi, ularning xatti-harakatlarini oldindan taxmin qilish, muloqotni to'g'ri qurish, guruhdagi ijtimoiy rollarni anglash va samarali moslashish imkonini beradi. Shuning uchun ijtimoiy intellekt boshqa maxsus qobiliyatlar singari, maxsus tashkil etilgan rivojlantirish jarayonini talab etadi.

Kalit so'zlar: sotsial intellect, ijtimoiy omil, ijtimoiy vaziyat, kognitiv, emotive, motivatsion, hokimiyat.

Sotsial intellekt insonning ijtimoiy muhitda muloqot qilish, boshqalarni tushunish, ularning niyat va his-tuyg'ularini talqin qilish, o'z xatti-harakatlarini moslashtirish hamda ijtimoiy vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyatidir (Thorndike, 1920; Guilford & Sullivan, 1965). Ushbu tushuncha psixologiyada ko'p komponentli integrativ tizim sifatida qaraladi, ya'ni u kognitiv (bilish), emotsional (hissiy), va kommunikativ (muloqotga oid) tarkiblarni birlashtiradi. Shu bois, sotsial intellektni ba'zan "ijtimoiy moslashuv mexanizmi" deb ham atashadi (Cantor & Kihlstrom, 1987; Чернышев, 2018). Ayrim olimlar uni boshqa intellekt turlari bilan qiyoslaydilar:

- **Siyosiy intellekt** – insonlarning hokimiyat, ijtimoiy nufuz va ta'sir o'tkazish tizimini anglash qobiliyati (Шелест, 2015).

- **Emotsional intellekt** – o'z va boshqalar hissiyotlarini anglash, nazorat qilish va motivatsiya uchun ishlatish ko'nikmasi (Mayer, Salovey & Caruso, 2004).

- **Praktik intellekt** – kundalik hayotdagi real masalalarni hal qilishda fikr va tajriba sintezidan foydalanish (Степнбегр, 1999).

- **Verbal intellekt** – tildan foydalangan holda ijtimoiy aloqani boshqarish salohiyati.

- **Sun'iy intellekt** – inson ijtimoiy qarorlarini modellashtiruvchi kognitiv tizimlar majmui.

Shunday qilib, sotsial intellekt barcha ushbu intellekt turlarining insondagi ijtimoiy refleksiya bilan uyg'unlashgan integratsion shaklidir. R.S.Nemov (2003) intellektni "insonning umumiy aqliy qobiliyatlari majmui, faoliyat turlarida

muvaqqiyatni ta'minlovchi omil" deb ta'riflaydi. A.L.Svintsitskiy (2009) esa uni "ratsional bilishning umumiy qobiliyati" sifatida talqin qilib, muvaqqiyatli faoliyatning asosini tashkil etadi. P.S.Gurevich (2011) intellektni "yangi vazifalarga moslashuvchanlik bilan bog'liq aqliy salohiyat" deb ataydi.

Shu nuqtai nazardan, sotsial intellekt insonning ijtimoiy moslashuv, munosabat qurish va murakkab kasbiy vaziyatlarga mos qaror qabul qilish jarayonlarini ta'minlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar (Belokon, 2019; Rakhmankulova, 2021; Fedorenko, 2022) sotsial intellekt rivojiga quyidagi omillar ta'sir etishini ko'rsatadi:

Omil	Tavsif
Kognitiv rivojlanganlik	Mantiqiy fikrlash, xotira, tahlil va refleksiya qobiliyatlari SI darajasini belgilaydi.
Emotsional barqarorlik	Stressga chidamlilik, o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish SI ni mustahkamlaydi (Pirozhkova, 2020).
Empatiya va refleksiya	Boshqalar holatini tushunish va o'z fikrini qayta ko'rib chiqish qobiliyatlari SI ning asosi (Ishutina, 2021).
Kommunikativ motivatsiya	Jamoda ishlash, tinglash, va muloqotga ochiqlik (Kapustina, 2022).
Kasbiy tajriba	Harbiy yoki xizmat faoliyatidagi real tajriba sotsial qaror qabul qilishni tezlashtiradi (Харченко, 2017; Геранюшкина, 2021).

Harbiy sharoitda sotsial intellekt strategik va operativ fikrlash bilan chambarchas bog'liq. Xizmat jarayonida SI quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Vaziyatni tezda ijtimoiy tahlil qilish qobiliyati ekstremal holatda kimga qanday murojaat qilishni bilish.
2. Emotsional regulyatsiya stress, qo'rquv va bosim ostida muloqotni nazorat qilish.
3. Ijtimoiy bashorat qilish buyruq, harakat yoki xabar oqibatlarini oldindan ko'ra olish.
4. Empatik yetakchilik bo'ysunuvchilarning hissiy holatini to'g'ri baholash va ularni ruhlantirish.
5. Moslashuvchan muloqot madaniyatlararo, etnik va yosh farqlarini hisobga olish.

S.V. Xarchenko (2017) va G.P. Geranyushkina (2020) tadqiqotlariga ko'ra, harbiy kursantlarning 60–70% o'rtacha darajadagi sotsial intellektga ega. Yuqori SI

darajasi esa intizom, refleksiya, mustaqil fikrlash va konfliktlarni konstruktiv hal qilish bilan bevosita bog'liqdir.

- Gender farqlari: Poryadina (2018) ayollarda empatiya va ijtimoiy sezuvchanlik komponentlari yuqoriroq ekanini, erkaklarda esa ijtimoiy strategiya va qaror qabul qilish tezligi ustunligini aniqlagan.

- Yosh omili: Pashchenko (2019) yoshlar (20–25) orasida SI ko'proq emotsional reaktivlik bilan, 30 yoshdan so'ng esa kognitiv tahlil bilan uyg'unlashadi.

- Kasbiy xususiyatlar: Fedorenko (2022) pedagog-psixologlar SI treninglari orqali kommunikativ samaradorlik va stressga bardoshlilikni oshirishini empirik isbotlagan.

Harbiy xizmatchilar orasida bu uchala parametr SI ni shakllantiruvchi ko'p vektorli psixologik tuzilma sifatida ishlaydi. Harbiy xizmatchilarda SI ni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy psixologik yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Trening texnologiyalari: sotsial-psixologik treninglar (СПТ), kino-trening, rolli o'yinlar, "after-action reflection" mashg'ulotlari.

- Kognitiv-interaktiv metodlar: vaziyatli topshiriqlar, ijtimoiy ssenariy tahlili, liderlik laboratoriyalari.

- Sun'iy intellekt yordamida diagnostika: SI testlari natijalarini SPSS va AI tahlil dasturlari orqali tarmoq modelida baholash.

- Refleksiv jurnal yuritish: kursant o'z muloqot holatlarini yozma tahlil qiladi.

- Mentorlik tizimi: tajribali ofitserlar tomonidan ijtimoiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich o'rgatish.

Sotsial intellekt shaxsning psixologik, emotsional va kognitiv tizimlarini birlashtiruvchi meta-kompetensiya bo'lib, harbiy xizmatchining kasbiy tayyorgarligi, stressga chidamliligi, ijtimoiy barqarorligi va kommunikativ madaniyatining asosi hisoblanadi. Bo'lajak ofitserlar SI ni rivojlantirish orqali:

- ijtimoiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni tezlashtiradi;

- konflikt vaziyatlarini yumshatadi;

- jamoada psixologik iqlimni barqarorlashtiradi;

- yetakchilik samaradorligini oshiradi.

O.B.Chesnokova ijtimoiy intellektni shaxsning kommunikativ vaziyatning yashirin, bevosita kuzatib bo'lmaydigan jihatlariga yo'naltirilish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Bu fikr, insonning muloqotdagi fikr, his-tuyg'u, niyat va ijtimoiy rollarni anglab, ular asosida maqsadga muvofiq yo'l tanlay olish qobiliyatini bildiradi. Olimlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy intellekt insonning turli ijtimoiy guruhlariga moslashuvchanligi, kasbiy sharoitlarga integratsiya bo'lishi, muvaffaqiyatli muloqot olib borishi uchun zarur omil hisoblanadi. M.M.Monastirniy ijtimoiy intellekt darajasini aniqlashni kasbiy-psixologik saralash tizimining ajralmas qismi sifatida ko'radi. M.M.Fetisova esa ekstremal sharoitlarda ijtimoiy intellekt insonning motivatsion yo'nalishini va xatti-harakatlar orientirini belgilovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellekti yuqori bo'lgan

bo'lajak huquqni muhofaza qiluvchilar ekstremal vaziyatlarda yanada barqarorroq, tezroq moslashuvchi va muvaffaqiyatli harakat qiluvchi shaxslar bo'ladi.

J.Gilford va M.Sullivan ijtimoiy intellekt testi yordamida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak ofitserlarning 65 foizi o'rtacha darajadagi ijtimoiy intellektga ega. Eng past natijalar inson xatti-harakatlarining mantiqiy tizimini tushunish, ixtilofli ijtimoiy vaziyatlarning rivojlanishini taxmin qilish bo'yicha topshiriqlarda qayd etilgan. Kursantlar, odatda, bolalar yoki notanish shaxslar bilan aloqa holatlarini yaxshi tahlil qila oladilar, lekin oila yoki nikoh munosabatlaridagi o'zaro ta'sirlarni tahlil qilishda qiynaladilar. S.V.Xarchenko (2010) tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy intellekt darajasi kursantlarning oliy harbiy o'quv yurtidagi dastlabki moslashuviga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi, biroq yuqori ijtimoiy intellekt guruh ichidagi ziddiyatlarni kamaytiruvchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellekti rivojlangan kursantlarda quyidagi fazilatlar shakllangan:

- o'zini to'g'ri baholay olish, ratsional fikrlash, muammoli vaziyatlarda emotsional barqarorlik;

- mustaqillik, intizom va nonkonformizm;
- ijodiy fikrlash, o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash qobiliyati;
- o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, muqobil harakat yo'llarini baholay olish;
- shaxsiy psixologik hudud odatlar, narsalar dunyosi va shaxsiy fazoviy suverenitetning rivojlanganligi.

Bo'lajak ofitserlarda ijtimoiy intellekt darajasi hozirda optimal darajada emas. Shu sababli ularni tayyorlash jarayonida psixologik va pedagogik yo'nalishdagi maxsus metodlarni joriy etish zarur. Harbiy oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy intellekt rivojiga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud:

- faoliyatning qat'iy reglamentatsiyasi;
- subordinatsiya tizimi va buyruqbozlik;
- guruh faoliyatining ustuvorligi va shaxsiy muloqot chegaralanganligi.

Bularning barchasi shaxsning erkin emotsional tajribasini, empatiya va sotsial moslashuvini cheklaydi. Shu bois, bu qobiliyatlarni rivojlantirishga maxsus e'tibor zarur. Bo'lajak ofitserlarda ijtimoiy intellekt quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilishi lozim:

1. Ijtimoiy o'zaro ta'sir qobiliyatlarini takomillashtirish.
2. Sotsial-psixologik kommunikatsiya texnikalarini egallash, ayniqsa destruktiv muloqot holatlarida.
3. Jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.
4. Boshqalarning xatti-harakat motivlarini anglash.
5. Kasbiy muloqotdagi rejalashtirish va refleksiya ko'nikmalarini oshirish.
6. Noan'anaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

Tadqiqotlarda psixologlar tomonidan quyidagi metodlar samarali deb topilgan:

- psixogimnastika mashqlari (I.V.Xaritonova);

- o'quv-bilish vazifalari (M.V.Odanovich);
 - roli va ishbilarmonlik o'yinlari (I.Yu.Isaeva, A.E.Kozlova);
 - sotsial-psixologik trening (M.L. Tarasenko, G.P. Geranyushkina, S.V.Xarchenko);
 - kino-trening (I.N.Verxoturova);
 - axloqiy-aksiologik mazmundagi seminarlar (N.A.Mixalchuk, E.Z.Ivashkevich).
- Biroq auditoriya soatlarining qisqarishi tufayli, o'qituvchilar zamonaviy va innovatsion usullardan kengroq foydalanishlari talab etiladi.

Kino-trening bo'lajak ofitserlarning psixologik kompetentligini oshirish, emotsional tafakkurni chuqurlashtirish va kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beruvchi metoddir. U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- turli ijtimoiy tipajlar bilan tanishish orqali ijtimoiy tajribani kengaytirish;
- his-tuyg'ularni chuqurroq tushunish, empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish;
- destruktiv muloqot va emotsional zo'riqish holatlarida to'g'ri yo'l tutish;
- o'z fikr va hissiyotlarini aniq ifodalash.

Kino-trening uchun psixolog tomonidan maxsus film to'plami tanlanadi — unda kasbiy muloqot, konflikt, qaror qabul qilish, jinoyatchi portreti kabi mavzular yoritilgan bo'lishi kerak.

Kino tomosha qilinganidan so'ng, kursantlar film qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilib, quyidagi savollarga javob berishlari lozim:

- «Bu vaziyatda boshqacha harakat qilish mumkinmidi?»
- «Qahramonning xatti-harakati nimasi bilan noto'g'ri bo'ldi?»
- «Men shu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardim?»

Bu tahlillar nafaqat kasbiy fikrlashni, balki o'zini tahlil qilish va refleksiya qobiliyatini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баширов И. Ф. Социальный интеллект как фактор успешности профессиональной деятельности военного психолога : автореф. дис... канд. психол. наук. : спец. : 19.00.05 Москва, 2006. 23 с.

2. Верхотурова И. Н. Кинотренинг как средство развития социального интеллекта подростков с девиантным поведением. Вестник Костромского государственного университета им. Н.А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2008. Т. 14. С. 188 – 191.

3. Гильяно А. С., Ромашина Е. Ю. Неформальные молодежные организации и проблема социализации. Известия ПГПУ им. В. Г. Белинского. 2012. № 28. С. 1184– 1187. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/neformalnye-molodezhnye-organizatsii-i-problema-sotsializatsii>

4. Михайлова Е.С. Тест Дж. Гилфорда и М. Салливена. Диагностика социального интеллекта. СПб., 2001. 51 с.

5. Фетисова М.М. Развитие социального интеллекта как компонента психологической готовности к деятельности в экстремальных ситуациях. Психопедагогика в правоохранительных органах. 2007. № 4 (31). С. 25 – 27.